

SHAYBONIYLAR ME'MORCHILIGI DAVRI MANBASHUNOSLIGI

Mustafayev Voxidjon Zoxidjon o'g'li

Aniq va Ijtimoiy Fanlar Universiteti

2-kurs magistranti

vohidmustafaev@gmail.com

+998994488097

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shayboniylar davridagi me'morchilik merosi bo'yicha mavjud yozma va moddiy manbalar tahlil qilingan. Asosan, bu davr me'morchiligini yorituvchi tarixiy manbalar – xronikalar, tarjimai hollar, sayyohlar yozuvlari hamda epigrafik yodgorliklar manbashunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. "Muntaxab ut-tavorix", "Zubdat ul-osor", "Fathnoma", "Sharafnomai shohiy" kabi asarlarda Shayboniy hukmdorlarining me'morchilik sohasidagi faoliyati va diniy hamda dunyoviy obidalarni qurishga bo'lgan e'tibori haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Shayboniylar davri, me'morchilik, yozma manbalar, epigrafiya, tarixiy tahlil, xronikalar, me'moriy yodgorliklar, meros.

Annotation: This article analyzes the existing written and material sources on the architectural heritage of the time of the Shaybanids. Mainly, historical sources covering the architecture of this period – Chronicles, biographies, tourist records and epigraphic monuments-were considered from a source-historical point of view. Works such as "Muntakhab ut-tavorix", "Zubdat ul-osor", "Fathnoma", "Sharafnomai shokhiy" contain references to the activities of the Shaibani rulers in the field of architecture and their attention to the construction of religious and secular monuments.

Keywords: Shaybanid period, architecture, written sources, epigraphy, historical analysis, chronicles, architectural monuments, heritage.

Asosiy qism: Shayboniylar davridagi me'moriy merosni o'rganishda yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular o'sha davr ijtimoiy-siyosiy voqeliklari,

shaharlardagi qurilish ishlari, obidalar holati va ularning estetik qiymatini tushunishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida ushbu sulola vakillarining tutgan o'rni katta bo'lgan. Avvalo, ularning o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Ubaydulloxon, Abdulazizxon kabi shaxslar turkiy va forsiy tillarda she'rlar yozgan, diniy va dunyoviy ilmlarda chuqur bilimga ega bo'lganlar. Muhammad Shayboniyxon yoshligida Buxoro madrasasida ta'lim olgan. Ubaydulloxonning musiqa ilmiga qiziqqani, turli musiqa asboblari chalganligi va chiroyli xattot bo'lgani ma'lum.

Shayboniylar davrida tarix ilmi va me'morchilik ham yuksak taraqqiy etgan. Biroq Shayboniylar sulolasi hukmronligi ostidagi Buxoro xonligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tarixchilar tomonidan alohida mavzu sifatida chuqur o'rganilmagan. Shunga qaramay, ba'zi tarixchi va sharqshunos olimlar o'z tadqiqotlarida bu mavzuga qisqacha to'xtalganlar. Bugungi kunga qadar o'zbek va rus tilida yozilgan manbalar asosida Shayboniylar davriga oid tarixiy asarlarni turlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

- Fors-tojik tilida yozilgan asarlar.
- Turkiy (eski o'zbek) tilida yozilgan asarlar.
- Sayyohlarning kundaliklari.

Fors-tojik tilida bitilgan muhim manba, shoir va tarixnavis olim Kamol ad-Din (Sher) Ali Binoiy Ustod Muhammadxon me'mor Heraviy (1453-1512) qalamiga mansub "Shayboniynoma" asari 1505-1507-yillarda yozilgan. Binoiyning mazkur asari Muhammad Shayboniyxonning xizmatida bo'lgan paytida, xon hamda uning o'g'li nazorati ostida bitilgan. Asarda Muhammad Shayboniyxonning tug'ilganidan boshlab to 1505-yilgacha, ya'ni Movarounnahr va Xorazmning bo'ysundirilishiga qadar bo'lgan voqealar hikoya qilinadi. Binoiy shayboniylarning qal'alarni qamal qilish tadbirlari, qo'shinning moddiy ta'minoti va qo'lga tushgan o'ljalarni taqsimlash jarayoni, askarlarning jangdan bo'sh paytlardagi mashg'ulotlari, Muhammad

Shayboniyxonning xo‘jalik tizimini tartibga solishga xizmat qiladigan turli inshootlar qurdirgani, xon huzurida uyushtiriladigan to‘ylar va bazmlar, ularning o‘tkazilish tartiblari xususida qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” asari Fazlulloh ibn Ro‘zbehxon 1509-yili yozgan. [1] “Mehmonnomayi Buxoro” asari XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda kechgan harbiy-siyosiy jarayonlar haqida. Muallif Shayboniyxon hayotining oxirgi 5-6 yilida unga hamrohlik qilgan, mashvaratlar va harbiy yurishlarida ishtirok etgan hamda ko‘rganlarini mazkur asariga kiritgan. Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari Movarounnahr, xususan Toshkent va unga tutash mintaqalar tarixiga doir muhim manbalardan biridir. [2] Manbada Mirzo Muhammad Haydar bir qancha qal’alar va shaharlarning qurilishi, ta’miri va ularning strategik ahamiyati haqida yozadi. XVI asr boshlarida Mirzo Muhammad Haydar bir qancha qal’alar va shaharlarning qurilishi, ta’miri va ularning strategik ahamiyati haqida yozadi. Haydar mirzo o‘zining xizmat qilgan hukmdorlari faoliyatini yozarkan, ular tomonidan qurilgan inshootlarni ham tilga oladi. “Tarixi Rashidiy”ning muhim jihatlaridan biri shundaki, Sulton Saidxon davrida amalga oshirilgan shaharsozlik ishlari, me’moriy inshootlar, jumladan madrasalar va saroylar haqida yoziladi. Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asari.[3] Asarda Abdullaxon II tomonidan Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda olib borilgan qurilish ishlari, obodonlashtirish, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, karvonsaroylar va ko‘priklar qurilishi haqida aniq tarixiy ma’lumotlar mavjud. Ayniqsa, **Abdullaxon madrasasi, Mir Arab madrasasi, Kalon masjidi va Kalon minorasi** kabi obidalar haqida so‘z yuritiladi. Hofiz Tanish Buxoriy 1584-yilda Abdullaxon II xizmatiga qabul qilingan. Saroy tarixchisi bo‘lib faoliyat olib borgan va umrining oxirigacha shu lavozimda ishlagan. Asarda O‘rta Osiyo, ya’ni O‘zbekiston, Qozog‘iston, qisman Afg‘oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi yoritilgan bo‘lib, XVI asrning 80-yillari oxirida yozib tamomlangan. Mazkur asar muqaddima, ikki qism va xotimadan iborat bo‘lib, o‘rta asr an’analariga xos tartibda yozilgan. Hofiz Tanish asarida me’moriy yodgorliklar haqida gapirar ekan, ularni shunchaki diniy inshoot

emas, davlat qudrati, ilm-u hunar homiyligi, solihlik va shohona olijanoblik ramzi sifatida tasvirilaydi. Masalan, madrasalar shunchaki dars maskani emas, balki shoh e'tibori, siyosiy madaniyat va xalqni birlashtirish vositasi sifatida ko'riladi. Asarda me'morlar, usta-gumashatlar, hattotlar va naqqoshlar to'g'risida ham ma'lumotlar keltiriladi. Abdullaxon ularni saroy homiyligiga olgani, ularning ishiga ulug' sharoitlar yaratgani haqida yoziladi. Bu me'morchilikning faqat texnik emas, ijodiy va estetik yo'nalishda ham rivojlanganini ko'rsatadi "Sharafnomayi shohiy" Shayboniylar davridagi me'morchilik, shaharsozlik, diniy-ma'rifiy muassasalar tarixini o'rganishda asosiy yozma manba hisoblanadi. Hofiz Tanish bu obidalarni shohlik qudrati va adolatining timsoli sifatida talqin etadi. Me'moriy asarlar orqali hukmdorning xalq oldidagi obro'si va diniy-ma'naviy homiyligi namoyon bo'lganini alohida ta'kidlaydi. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an qalamiga mansub "Musaxxir al-bilod" ("Mamlakatlarning egallanishi") nomli asar shayboniylar davrida hukmdorlarining o'zlari egallagan hududlarda **ijtimoiy va diniy inshootlar qurilishiga alohida e'tibor berganliklari** haqida qayd etilgan. Asarda ayniqsa Muhammad Shayboniyxon va uning vorislari tomonidan **masjid, madrasa, xonaqoh va boshqa obidalar** qurilishi bilan diniy-ma'naviy hayotga xizmat qilgan inshootlar qad rostlagani zikr etiladi.[4] Shuningdek, muallif ayrim harbiy yurishlardan keyin, **bosib olingan hududlarda me'moriy inshootlarning tiklanishi yoki yangidan qurilishi** haqida ham ma'lumot beradi. Bu jihat Shayboniylar siyosatining bir qismi sifatida **me'moriy taraqqiyot va shaharsozlik** yo'nalishiga ahamiyat berganini ko'rsatadi. Asarning boshqa manbalarda farqli jihati ham shundadir. Muallif asarni, odatga ko'ra, o'z zamonasi hukmdoriga emas, balki bir necha yillar oldin vafot etgan shayboniy Abdullohxon ibn Iskandarxon xotirasiga bag'ishlagan. "Musaxxir al-bilod" o'ziga xos usulda yozilgan tarixiy asar bo'lib, undagi ma'lumotlar ayrim o'rinlarda takroriy bo'lsa-da, ularning muallif tomonidan ixcham tarzda bir yerga yig'ib berilishi, ayrim ma'lumotlarning esa bizgacha yetib kelmagan manbalardan iqtibos qilingani yoki muallifning o'zi tomonidan kiritilgani, qolaversa, bu asar qo'lyozma nusxalarining qayta-qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalishi uning

o'sha davr tarixchiligi rivojiga qo'shgan hissasi va vatanimiz tarixshunosligida tutgan munosib o'rnini tutatadi.

Mas'ud ibn Usmon Ko'hisoniyning "Tarixi Abulxayrxoniy" asari Shayboniylar davri tarixining dastlabki bosqichlarini, xususan Abulxayrxon faoliyati, uning harbiy yurishlari, siyosiy qarashlari bilan birga ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni yoritishga bag'ishlangan muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda me'morchilikka oid ayrim fikrlar ham uchraydi, ayniqsa bu fikrlar davlat barqarorlashuvi jarayonida diniy va ma'muriy inshootlarning tiklanishi bilan bog'liq. "Tarixi Abulxayrxoniy" asarida Shayboniylar sulolasining dastlabki davrida, xususan Xorazm, Sirdaryo, Movarounnahr hududlarida olib borilgan qurilish ishlari, masjid va madrasa kabi diniy va ta'lim maskanlarining qayta tiklanishi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ko'hisoniy Abulxayrxonning harbiy yutuqlari ortidan, bosib olingan hududlarda tinchlik o'rnatilib, me'morchilik ishlari jonlanganini ta'kidlaydi.[5] Me'morchilikka doir bu ma'lumotlar **bevosita obidalar tavsifi shaklida bo'lmasa-da**, ularning **ijtimoiy-funksional ahamiyatini** ko'rsatadi - ya'ni, yangi hokimiyat madaniy va diniy obidalarni barpo etish orqali o'z mavqeini mustahkamlashga intilgan. Zayn ad-Din Mahmud bin Abd al-Jalil Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" asari - Shayboniylar davri hayoti, siyosiy voqealari va madaniyati, jumladan me'morchilik masalalari haqida qimmatli manbalardan biridir. Vosifiy "Badoe' ul-vaqoe'" asarida Shayboniylar davri hukmdorlarining diniy va dunyoviy me'morchilikka bo'lgan e'tiborini tasvirlab, Buxoro, Samarqand va Toshkentda qurilgan madrasa, masjid va boshqa obidalarni madh etgan. Asarda ularning nafis naqshlari va me'moriy uslubi alohida tilga olinadi.

Mahmud ibn Amir Vali yozgan "Bahr ul-asror fi manoqib al-axyor" nomli Shayboniylar sulolasining ayrim vakillari homiyligida barpo etilgan me'moriy obidalar, ularning diniy va siyosiy ramziy mazmuni, shaharlardagi bunyodkorlik ishlari, ziyoratgohlar, xonqohlar, masjid va madrasa qurilishi haqida fikr yuritadi.[6] Mahmud ibn Amir Valining "Bahr ul-asror fi manoqib al-axyor" asarida Shayboniylar davrida barpo etilgan masjid, madrasa, xonaqoh kabi diniy me'moriy inshootlarning

nafaqat me'moriy tuzilishi, balki ularning tasavvufiy va ma'naviy ramziyligi ham yoritiladi. Asarda me'morchilik orqali xalqning e'tiqodi va tariqat bilan bog'liqligi ochib beriladi. Abulabbos Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiyning fors tilidagi "Matlab ut-tolibin" ("Toliblar matlabi") asari.[7] "Matlab ut-tolibin" asarida Shayboniylar davridagi Buxoro va Samarqand kabi markaziy shaharlarda olib borilgan qurilish ishlari, masjid, madrasa va boshqa inshootlar haqida ma'lumotlar berilgan. Muallif diniy va ilmiy markaz sifatida Buxoroning obodonlashtirilishi, madaniyatga homiylik, shaharning me'moriy qiyofasi va unga berilgan e'tiborni tilga oladi. Asarda Shayboniylar davrida barpo etilgan me'moriy inshootlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud bo'lib, muallif bu inshootlarning nafaqat siyosiy yoki diniy, balki madaniy va ilmiy ahamiyatini ham alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, Buxoroda qurilgan madrasalar va jome masjidlar yodga olinadi. Xoja Ubaydulloh Ahrorning muridi va izdoshi, naqshbandiya tariqatining atoqli shayxlaridan biri Mavlono Muhammad Qozi XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashagan. Uning asosiy asari mashhur "Silsilat ul-orifin"dan tashqari, davlatni boshqarish haqida yana bir risolasi.[8] Asarda bevosita tasavvufiy markazlar, xonaqohlar, zaviyalar, maqbaralar, masjid va madrasa kabi diniy-me'moriy inshootlar haqida eslatmalar mavjud. Shayboniylar hukmdorlarining tariqat vakillariga homiylik qilgani, ular uchun xonaqohlar va ziyoratgohlar qurdirgani, Buxoro, Samarqand kabi markaziy shaharlarda tasavvufiy inshootlarning bunyod etilishi tilga olinadi. "Silsilat ul-orifin" asarida Shayboniylar davrining diniy hayoti va naqshbandiylik tariqatiga oid ma'lumotlar bilan bir qatorda, bu tariqat arboblari uchun barpo etilgan me'moriy inshootlar — xonaqoh, maqbara, masjid va madrasalarning mavjudligi qayd etilgan. Bu esa o'z navbatida, me'morchilikning diniy-ma'naviy asoslarga tayangan holda shakllanganligini ko'rsatadi.

Xulosa: Shayboniylar davri ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar mavzusiga doir turli tarixiy manbalar va ularning sharhidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: turkiy tildagi manbalar ko'proq hukmron sulolalar, ularning nasl-nasabi, tarjimai holi, siyosiy faoliyati, diniy, ma'naviy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishi,

harbiy yurishlarini esa ilohiy karomat va mo'jizalar orqali bayon qilishi, diniy karomatlarga ko'proq tayanishi, voqealarni ilohiy ilm va adabiyotning o'z davri darajasidan kelib chiqib, zamon talabiga mos tasnif etish usullarini qo'llashi bilan ajralib turadi; yilnoma va manbalarda xonlarning qahramonliklari, jasorati madh etilib, ular sharafiga hamdu sano aytish bilan cheklanganlar, ayrim muayyan voqea va hodisalar esa mufassal berilmagan hamda shu sababli harbiy tizim va harbiy hayot bilan aloqador misollar bunday asarlarda kam uchraydi; manbalarda tarixiy jarayonlar talqini asar muallifining dunyoqarashi, tafakkur va idrok darajasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. [1] Биноий К. Шайбонийнома // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. XVI-XIX асрлар. – Т.: – Фан ва технология, 2014. – Б. 9-11.
2. [2] Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 243-350. [3] Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”)
3. [4] Muhammadyor ibn Arab Qatag'on. *Musaxxir al-bilod* (fors tilidan tarjima). Qarang:
4. [5] Ko'histoniy M. *Tarixi Abulxayrxoniy* (fors tilidan tarjima). Qarang: Mukminova R.G. *XVI asr manbashunosligi*. – Т.: Fan, 1983. – Б. 55–58.
5. [6] Mahmud ibn Amir Vali. *Bahr ul-asror fi manoqib al-axyor*. Qarang: Mukminova R.G. *XVI asr manbashunosligi*. – Т.: Fan, 1983. – Б. 125–129.
6. [7] Abulabbos Muhammad Tolib ibn Tojiddin. *Matlab ut-tolibin*. Qarang: Mukminova R.G. *XVI asr manbashunosligi*. – Т.: Fan, 1983. – Б. 135–140.
7. [8] *Silsilat ul-orifin*. Qarang: Mukminova R.G. *XVI asr manbashunosligi*. – Т.: Fan, 1983. – Б. 145–149.